O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.581'366

Zebo F.SHAMSIDDINOVA,
PhD, katta o‘qituvchi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: zshamsiddinova@uwed.uz; ORCID: 0009-0008-2965-6595

TMC instituti dotsenti v.b. PhD Sh.Xasanova taqrizi asosida

THEORETICAL PERSPECTIVES ON THE MORPHOLOGICAL FEATURES OF VERBS AND THE CATEGORY OF TENSE IN MODERN CHINESE

Annotation

The article examines the expression of past-time meaning in Modern Chinese, the morphological characteristics of Chinese verbs, and the grammatical status of the tense category. Since Chinese verbs do not inflect for person, number, or tense, temporal meanings are mainly expressed through lexical, grammatical, syntactic, and contextual means. Particular attention is paid to the functional properties of 了 (le), 过 (guò), and 着 (zhe) and their interaction with temporal and aspectual meanings. The study concludes that the interpretation of past-time meaning in Chinese requires a comprehensive consideration of verb semantics, syntactic environment, aspectual markers, and context.

Keywords: past tense, verb, tense category, aspect, aspectuality, 了 (le), 过 (guò), 着 (zhe), temporal meaning, grammatical marker.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАГОЛА И КАТЕГОРИЮ ВРЕМЕНИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности выражения прошедшего времени в современном китайском языке, морфологические характеристики глагола и грамматический статус категории времени. Поскольку китайские глаголы не изменяются по лицам, числам и временам, темпоральные значения выражаются преимущественно лексическими, грамматическими, синтаксическими и контекстуальными средствами. Особое внимание уделяется функциональным особенностям показателей 了 (le), 过 (guò) и 着 (zhe), а также их взаимодействию с аспектуальными и темпоральными значениями. Делается вывод о необходимости комплексного учёта семантики глагола, синтаксического окружения и контекста при определении значения прошедшего времени в китайском языке.

Ключевые слова: прошедшее время, глагол, категория времени, аспект, аспектуальность, 了 (le), 过 (guò), 着 (zhe), темпоральное значение, грамматический показатель.

HOZIRGI XITOY TILIDA FE’LNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ZAMON KATEGORIYASI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada hozirgi xitoy tilida o‘tgan zamon fe’l shakllarining ifodalanishi, fe’llarning morfologik xususiyatlari hamda zamon kategoriyasining grammatik maqomi tahlil qilinadi. Xitoy tilida fe’llarning shaxs, son va zamonga ko‘ra morfologik o‘zgarmasligi sababli temporal ma’nolarning leksik, grammatik, sintaktik va kontekstual vositalar orqali ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlarining zamon va aspekt ma’nolarini ifodalashdagi funksiyalari hamda ularning fe’l semantikasi va kontekst bilan munosabati yoritiladi. Tadqiqot natijasida xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosini aniqlashda faqat morfologik mezon bilan cheklanib qolmasdan, aspektual, leksik-semantik, sintaktik va kontekstual omillarni kompleks hisobga olish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: o‘tgan zamon, fe’l, zamon kategoriyasi, aspekt, aspektuallik, 了 (le), 过 (guò), 着 (zhe), temporal ma’no, grammatik ko‘rsatkich.

Kirish. Hozirgi xitoy tilida o‘tgan zamon fe’l shakllarini tadqiq etishda, avvalo, xitoy tilidagi fe’lning morfologik xususiyatlari hamda zamon kategoriyasining grammatik maqomini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy tili o‘zining izolyativ xususiyati bilan flektiv tillardan keskin farq qiladi. Xitoy tilidagi fe’llar shaxs, son va zamonga ko‘ra morfologik o‘zgarishga uchramaydi. Shu jihatdan xitoy tilida zamon kategoriyasining mavjudligi va uning qanday grammatik vositalar orqali ifodalanishi masalasi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon munozarali masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘zbek tilida fe’l shaxs-son va zamon ma’nolarini maxsus grammatik qo‘shimchalar orqali ifodalaydi. Masalan, “men o‘rganaman”, “sen o‘rganasan”, “u o‘rganadi”, “biz o‘rganamiz” kabi shakllarda fe’lning morfologik tarkibi shaxs va songa ko‘ra o‘zgaradi. Hozirgi xitoy tilida esa 学习 (xuéxí - “o‘rganmoq”) fe’li shaxs va sonning o‘zgarishidan qat’i nazar bir xil shaklda qo‘llanadi: 我学习汉语 (Wǒ xuéxí hànyǔ) - “Men xitoy tilini o‘rganaman”; 你学习汉语 (Nǐ xuéxí hànyǔ) - “Sen xitoy tilini o‘rganasan”; 他们学习汉语 (Tāmen xuéxí hànyǔ) - “Ular xitoy tilini o‘rganadilar”. Shaxs ma’nosi ega vazifasidagi olmoshlar orqali, ko‘plik esa, asosan, olmoshlarga 们 (men) ko‘rsatkichining qo‘shilishi orqali ifodalanadi.

Mazkur holat xitoy tilida fe’llarning tuslanish xususiyatiga ega emasligini ko‘rsatadi. Binobarin, xitoy tilida fe’lning o‘zida o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamonni ifodalovchi maxsus morfologik shakllar mavjud emas. Shu sababli ayrim tilshunoslar xitoy tilida morfologik zamon kategoriyasi mavjud emas, vaqt ma’nosi esa leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalanadi, degan fikrni ilgari suradilar. Bunday vositalar qatoriga vaqt ma’noli so‘zlar, ravishlar, yordamchi birliklar, so‘z tartibi va kontekst kiritiladi.

Xitoy tilshunosligida mazkur masala yuzasidan turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Ayrim olimlar 了 (le), 过 (guò), 着 (zhe) kabi birliklarni aspektual ko‘rsatkichlar sifatida talqin qilsa, boshqa tadqiqotchilar ularning temporal va aspektual ma’nolari o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratadilar. Shu bois xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosini aniqlashda fe’lning morfologik xususiyatlari bilan bir qatorda, grammatik ko‘rsatkichlar, leksik ma’no va kontekstning o‘rnini ham o‘rganish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqotning nazariy asosini Vang Li, Lu Shusyan, A.A. Dragunov, S.E.Yaxontov, Y.S.Maslov va A.V.Bondarko kabi olimlarning xitoy tili grammatikasi, aspektologiya va funksional grammatika masalalariga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, xitoy tilidagi fe’l shakllari va temporal ma’nolarni tushuntirishda misollar tahlilidan foydalaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot hozirgi xitoy tilida fe’lning morfologik xususiyatlari va zamon kategoriyasining grammatik maqomini nazariy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini tavsifiy, qiyosiy, kontekstual va funksional-semantik tahlil usullari tashkil etadi.

Tavsifiy metod orqali xitoy tilidagi fe’llarning morfologik o‘zgarmasligi hamda temporal ma’nolarni ifodalovchi grammatik vositalarning xususiyatlari yoritiladi. Qiyosiy metod yordamida o‘zbek va xitoy tillarida fe’lning shaxs, son va zamon ma’nolarini ifodalash usullari o‘zaro solishtiriladi. Kontekstual tahlil asosida 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlarining ma’nosi ularning gapdagi o‘rni va umumiy mazmuni bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Funksional-semantik yondashuv esa temporal va aspektual ma’nolarning o‘zaro munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, grammatik ma’nolar alohida vositalar doirasida emas, balki leksik, sintaktik va kontekstual birliklar bilan o‘zaro aloqada tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Xitoy tilida fe’lning morfologik xususiyatlari va zamon kategoriyasining nazariy talqini

Xitoy tilshunosligida mazkur masala yuzasidan ikki asosiy nazariy yo‘nalishni ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish vakillari xitoy tilida morfologik zamon kategoriyasi mavjudligini inkor etib, 了 (le), 过 (guò), 着 (zhe) kabi birliklarni aspektual ko‘rsatkichlar sifatida talqin qiladilar. Ikkinchi yo‘nalish vakillari esa ushbu birliklarda temporal, aspektual va modal ma’nolarning o‘zaro bog‘liqligini qayd etib, zamon ma’nosini kengroq grammatik tizim doirasida o‘rganadilar.

XX asrning 40–60-yillarida Vang Li, Gao Minkay, A.A.Dragunov, S.E.Yaxontov va boshqa xitoyshunoslar xitoy tili grammatikasini tavsiflashda flektiv tillar, xususan, rus tili grammatik tizimiga xos kategoriyalardan foydalanishga harakat qilganlar. Bunda xitoy tilidagi fe’l shakllarida tur, zamon va boshqa grammatik ma’nolarni aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Y.S.Maslov tur kategoriyasi va aspekt tushunchalarining o‘zaro munosabatini farqlash zarurligini ta’kidlaydi. Tur kategoriyasi rus va boshqa slavyan tillarida o‘ziga xos grammatik tizim sifatida shakllangan bo‘lsa-da, boshqa tillarda harakatning kechishi, davomiyligi va tugallanganligini ifodalovchi vositalar ham mavjud. Shu sababli tur va aspektni barcha tillarda aynan bir xil hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas.

Tan Aoshuan xitoy tilidagi fe’l shakli zamon haqida bevosita ma’lumot bermasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, xitoy tilidagi fe’l va fe’lli birikmalarning qaysi zamon rejasiga mansubligi kontekst, vaqt bildiruvchi leksik birliklar va grammatik yordamchi vositalar orqali aniqlanadi. Fan Yutsin ham xitoy tilida fe’llarda so‘z o‘zgarishi mavjud emasligini, harakatning zamoni fe’lning o‘zi bilan cheklanmasdan, ravishlar, vaqt ma’noli so‘zlar, yordamchi birliklar va kontekst orqali aniqlanishini qayd etadi.

Shu bilan birga, xitoy tilidagi fe’l shakllarida temporal ma’noning mavjudligini butunlay inkor etish ham to‘g‘ri emas. Chunki 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) kabi grammatik ko‘rsatkichlar harakatning vaqtga munosabati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq ma’nolarni ifodalaydi. Hozirgi xitoy tilida 了 (le) ko‘pincha harakatning amalga oshganligi yoki vaziyatdagi o‘zgarishni, 过 (guò) avvalgi tajribani, 着 (zhe) esa davomiy holatni ifodalovchi vositalar sifatida qo‘llanadi.

Aspektual ko‘rsatkichlarning funksional xususiyatlari

Vang Li xitoy tilida voqea-hodisa va vaqt munosabati boshqa tillardagidan farqli ravishda, ko‘proq harakatning davomiyligi, boshlanishi va tugallanganligiga e’tibor qaratish orqali shakllanishini ta’kidlaydi. U harakat holatini ifodalovchi bir qator shakllarni ajratadi. Jumladan, 普通貌 (pǔtōng mào - oddiy holat), 进行貌 (jìnxíng mào - jarayon holati), 完成貌 (wánchéng mào - tugallanganlik holati), 近过去貌 (jìn guòqù mào - yaqin o‘tmish holati), 开始貌 (kāishǐ mào - boshlanish holati), 继续貌 (jìxù mào - davomiylik holati) va 短时貌 (duǎnshí mào - qisqa muddat holati) shular jumlasidandir.

Lu Shusyan xitoy tilida harakatning yo‘nalishi va kechishini ifodalovchi grammatik vositalarga ham e’tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko‘ra, 着 (zhe) davomiylik, 了 (le) tugallanganlik yoki vaziyatdagi o‘zgarish, 起来 (qǐlái) harakatning boshlanishi, 下去 (xiàqù) esa harakatning davom etishi bilan bog‘liq ma’nolarni ifodalashi mumkin. 来 (lái) va 去 (qù) kabi birliklar tegishli sintaktik qurilmalarda harakat yo‘nalishini bildiradi. Ularning temporal ma’nosi esa qo‘llanish muhiti va kontekstga bog‘liq.

A.V.Bondarkoning funksional-semantik yondashuvi ham xitoy tilidagi zamon masalasini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Olimning fikricha, grammatik kategoriyalar bir-biridan uzilgan holda emas, balki o‘zaro ta’sirda mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra, xitoy tilidagi zamon ma’nosini ham aspekt, modallik, leksik-semantik va sintaktik vositalar bilan o‘zaro munosabatda tadqiq etish lozim.

了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlarining tahlili

Xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosini o‘rganishda 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlarining vazifalarini farqlash muhimdir.

了 (le) ko‘rsatkichi. Ushbu birlik fe’ldan keyin kelganda ko‘pincha harakatning amalga oshganligini yoki voqeaning muayyan chegaraga yetganligini bildiradi. Masalan:

我吃了饭。

Wǒ chī le fàn.

Men ovqat yedim.

Misolda 了 (le) harakatning amalga oshganligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ko‘rsatkichni barcha holatlarda o‘tgan zamonning bevosita belgisi sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Uning ma’nosi gapning sintaktik tuzilishi va kontekstiga bog‘liq.

过 (guò) ko‘rsatkichi. Ushbu birlik ko‘pincha avvalgi tajribani ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan:

我去过北京。

Wǒ qù guò Běijīng.

Men Pekinda bo‘lganman.

Mazkur gapda 过 (guò) Pekinga borish hodisasining avvalgi tajriba sifatida mavjudligini bildiradi. Bunda asosiy e’tibor harakatning aniq vaqtiga emas, balki tajribaning mavjudligiga qaratiladi.

着 (zhe) ko‘rsatkichi. Ushbu birlik odatda muayyan holatning davom etayotganligini yoki harakat natijasida

yuzaga kelgan holatning saqlanib turganligini ifodalaydi. Masalan:

门开着。

Mén kāi zhe.

Eshik ochiq turibdi.

Misolda 着 (zhe) eshikning ochiq holatda davom etayotganligini bildiradi. Shu sababli ushbu ko‘rsatkichni o‘tgan zamon belgisi sifatida emas, balki davomiy holatni ifodalovchi aspektual vosita sifatida talqin qilish lozim.

Keltirilgan misollar xitoy tilidagi aspektual ko‘rsatkichlarning funksional jihatdan bir-biridan farq qilishini ko‘rsatadi. Ularning temporal ma’noni aniqlashdagi roli mavjud bo‘lsa-da, ushbu birliklarning vazifasini faqat zamon ma’nosi bilan cheklab bo‘lmaydi.

O‘rganilgan nazariy qarashlar va misollar xitoy tilida zamon hamda aspekt munosabatlarini aniqlashda bir necha muhim jihatni ko‘rsatadi.

Birinchidan, xitoy tilidagi fe’llar shaxs, son va zamonga ko‘ra morfologik tuslanmaydi. Shu sababli temporal ma’nolarni aniqlashda fe’lning morfologik shakli asosiy mezon bo‘la olmaydi.

Ikkinchidan, 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlari turli aspektual ma’nolarni ifodalaydi. 了 (le) ko‘pincha harakatning amalga oshganligi yoki vaziyatdagi o‘zgarishni, 过 (guò) avvalgi tajribani, 着 (zhe) esa davomiy holatni bildiradi. Ularning vazifalari bir-biridan farq qilgani sababli, ularni yagona o‘tgan zamon ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilish mumkin emas.

Uchinchidan, vaqt bildiruvchi leksik birliklar, fe’lning semantik xususiyatlari, gapning sintaktik tuzilishi va kontekst temporal ma’noni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Demak, xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosi birgina grammatik ko‘rsatkich orqali emas, balki bir nechta vositalarning o‘zaro ta’siri orqali yuzaga chiqishi mumkin.

To‘rtinchidan, funksional-semantik yondashuv zamon va aspektning o‘zaro munosabatini yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Bu yondashuv xitoy tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini boshqa tillar grammatikasiga to‘liq tenglashtirmasdan tahlil qilishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari hozirgi xitoy tilida fe’lning morfologik xususiyatlari va zamon kategoriyasining grammatik maqomini aniqlashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, xitoy tilidagi fe’llarning shaxs, son va zamonga ko‘ra morfologik o‘zgarmasligi temporal ma’nolarni ifodalashda leksik, grammatik, sintaktik va kontekstual vositalarning muhim o‘rin tutishini belgilaydi.

Ikkinchidan, 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlari xitoy tilida aspektual ma’nolarni ifodalashda muhim grammatik vositalar hisoblanadi. 了 (le) ko‘pincha harakatning amalga oshganligi yoki vaziyatdagi o‘zgarishni, 过 (guò) avvalgi tajribani, 着 (zhe) esa davomiy holatni bildiradi. Biroq ularning vazifalarini faqat o‘tgan zamon ma’nosi bilan cheklab bo‘lmaydi.

Uchinchidan, xitoy tilidagi zamon kategoriyasining grammatik maqomini aniqlashda morfologik mezon bilan bir qatorda, aspektual ko‘rsatkichlar, vaqt bildiruvchi birliklar, fe’lning leksik-semantik xususiyatlari, sintaktik qurilma va kontekstni ham hisobga olish lozim.

To‘rtinchidan, funksional-semantik yondashuv xitoy tilidagi temporal ma’nolarning turli grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishini yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Hozirgi xitoy tilidagi temporal ma’nolarni o‘rganishda morfologik, aspektual va kontekstual tahlil usullarini birgalikda qo‘llash.

2. 了 (le), 过 (guò) va 着 (zhe) ko‘rsatkichlarini alohida-alohida o‘rganib, ularning turli sintaktik qurilmalardagi funksional farqlarini aniqlash.

3. Xitoy va o‘zbek tillarida zamon hamda aspekt ma’nolarining ifodalanishini qiyosiy o‘rganish orqali ikki tilning grammatik o‘xshashliklari va farqlarini belgilash.

4. Xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosini aniqlashda vaqt bildiruvchi so‘zlar, fe’l semantikasi va kontekstning o‘zaro munosabatini misollar asosida chuqurroq tahlil qilish.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda xitoy tilidagi zamon va aspekt munosabatlariga oid nazariy qarashlarni asl xitoycha manbalar asosida tekshirish va matn ichidagi havolalar bilan mustahkamlash.

Umuman olganda, xitoy tilidagi o‘tgan zamon ma’nosini aniqlashda faqat morfologik mezon bilan cheklanib qolmasdan, aspektual, leksik-semantik, sintaktik va kontekstual omillarni kompleks ravishda hisobga olish zarur. Bunday yondashuv xitoy tilining grammatik xususiyatlarini aniqroq tavsiflash hamda zamon va aspekt o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Wang L. 中国现代语法. Beijing: 商务印书馆, 1985.
2. Lü Shuxiang. 现代汉语八百词. Beijing: 商务印书馆, 1980.
3. Zhao Yuanren. 汉语口语语法. Beijing: 商务印书馆 , 1979.
4. Dragunov A. A. Исследования по грамматике современного китайского языка. М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1952.
5. Yakhontov S. E. Категория глагола в китайском языке. Л.: Наука, 1957.
6. Maslov Yu. S. Очерк по аспектологии. Л.: Наука, 1984.
7. Bondarko A. V. Теория значения в системе функциональной грамматики. М.: Языки славянской культуры, 2002.